



UO'K: 633.51; 632.9; 632. 934; 632. 937; 634.58.

TAKRORIY EKINLARDA ZARARKUNANDALARNI ANIQLASH USULLARI

Sattorov Asqar Butayorovich 

b.f.n. katta ilmiy xodim

Xalimov Raxmatilla Raimovich 

kichik ilmiy xodim

O'simliklar karantini va himoyasi ITI Surxondaryo mintaqaviy filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada chamalash (marshrut) va doimiy (statsionar) usullardan foydalanib Surxondaryo mintaqasi sharoitida takroriy ekin sifatida ekilayotgan yeryong'oq biotipida uchraydigan zararkunandalarning tur tarkibini va tarqalish darajasini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan. Unga asosan yeryong'oq biotipida o'rgimchakkana, g'o'za qandalasi, tamaki tripsi va sikadalar zichligi yuqori bo'lishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Biotip, yeryong'oq, mintqa, trips, qandala, zararkunanda, o'rgimchakkana.

Abstract. This article presents the results of a study conducted using the route and stationary methods to study the species composition and distribution of pests in the peanut biotype, which is planted as a repeated crop in the Surkhondaryo region. Based on this, it was determined that the peanut biotype has a high density of spider mites, cotton bollworms, tobacco thrips, and cicadas.

Keywords: Biotype, peanut, region, thrips, thrips, thrips, pest, spider mite.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования видового состава и распространения вредителей биотипа арахиса, выращиваемого в качестве повторно высаженный культуры в Сурхандарьинской области, проведенного маршрутным и стационарным методами. На основании полученных данных установлено, что биотип арахиса характеризуется высокой плотностью паутиных клещей, хлопковой совки, табачного трипса и цикад.

Ключевые слова: Биотип, арахис, регион, трипсы, вредитель, паутиный клещ.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishda har bir hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, mavjud ekin maydonlaridan unumli foydalanish aholini uzluksiz ravishda sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

beradi. Har yili Surxondaryo viloyatida dehqonlarimiz tomonidan 20 ming gektardan oshiq maydonlarda aholi uchun oziq - ovqat va chorvachilik uchun to'yimli yem- xashak xisoblanadigan oqsilga boy yeryong'oq o'simligi takroriy ekin sifatida parvarish qilinmoqda. Yeryong'oqdan yuqori hosil olishning muhim tadbirlaridan biri-bu uni turli xil zararkunanda hasharotlardan himoya qilishni to'g'ri tashkillashtirishdan iboratdir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili Surxondaryo sharoitida takroriy ekin sifatida ekilayotgan yeryong'oq ekinida uchraydigan zararli hasharotlar tur tarkibi va ularning tarqalishi tizimli ravishda o'rganilmaganligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, yeryong'oq yetishtiruvchi aksariyat dehqonlarda ekin maydonida qaysi turdagi zararkunandalarning mavjudligi, tarqalishi va miqdorini aniqlash usullari to'g'risida ma'lumotlar yetishmayotganligi sababli ularga qarshi kurashda jiddiy xatoliklarga va ortiqcha sarf xarajatlarga yo'l qo'yilayotganligi aniqlandi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot ishlari chamalash (marshrut) va doimiy (statsionar) usullarda viloyatning yeryong'oq eng ko'p ekiladigan, tuproq tarkibi yengil va unumdor bo'lgan Jarqo'rg'on tumanida g'alladan bo'shagan maydonlarga ekilgan yeryong'oq ekinzorlarida olib borildi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalarini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

1. Chamalash (marshrut) usuli – kuzatuv jaryonida yeryong'oq ekinida zararkunandalar turlarining mavjudligi ko'z bilan chamalab o'rganiladi. Bu holatda zararkunandalar soni aniq hisoblanmaydi. Ularning miqdori kam, o'rtacha va ko'pligi chamalab aniqlanadi. Bu usulda o'rganilgan dala qismi umumiy maydonning 10% ni tashkil qilishi lozim.

2. Doimiy (statsionar) usuli- bunda zararkunandalar soni va rivojlanish darajalari aniq hisoblanib boriladi. Olingan natijalar asosida qarshi kurash choralari belgilanadi.

Har ikkala usullarda kuzatuv ishlari o'simlikning o'suv davrida doimiy har 3-5-10 kunda va ayrim holatlarda har kuni o'simliklar unib chiqqandan hosili pishguncha nazorat qilib boriladi.

Tadqiqot jarayonida turli xil jihozlardan foydalanildi. Bunda jihozlar oddiy va murakkab (elektron) bo'lishi mumkin.

Dala sharoitida foydalanilgan jihozlar.

1. Lupa
2. Uzunligi 25-100 sm bo'lgan o'lchagich.
3. Eni va bo'yi 1x1 bo'lgan oq mato.
4. Oddiy oq qog'oz.
5. Entomologik matrap.
6. Tuproq qazish uchun kichik kurakcha.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Hasharotlarni o'rganish ishlari ertalab va kechqurun havoning salqin paytlari olib borildi. Bu vaqtda ular kam harakatsiz holatda bo'ladi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan yeryong'oq o'simligida uchraydigan zararkunandalar quyidagilarni tashkil etdi (jadval).

Ushbu zararkunandalarning hayot kechirish tarzi turli muhitda kechadi. Kuzgi tunlam lichinkalari va simqurtlar tuproqda yashab o'simlik ildizi va dukkaklariga zarar beradi. O'rgimchakkana, o'simlikxo'r qandalalar, trips, sikada, oqqanot, shira, g'o'za va gamma tunlami lichinkalari esa o'simlikning yer ustki qismlarida joylashib zarar beradi.

Qishloq xo'jalik ekinlari zararli organizmlarining mavjudligi, ko'payishi va tarqalishini oldindan bashorat qilish, aniqlash va tashxis qo'yish ularga qarshi kurash tadbirlarini o'z muddatida va to'g'ri tashkil etishning asosi hisoblanadi.

Yeryong'oq o'simligining ildiz qismiga va yer ostida joylashgan dukkaklarini shikastlaydigan simqurtlar va ildiz qurtlarini hisoblash 50x50 sm yoki 0,25 m² hajmdagi maydonda belkurakcha yordamida qatlam -qatlam qazilib o'rganildi. 1 ga maydon hisobida jami 5 ta namuna diagonal yurish bo'yicha tanlab olindi. Ushbu maydonlardagi ildiz qurti zararkunandasi yeryong'oqning chinbarg fazasidan pishishgacha bo'lgan davrda kam uchraganligi aniqlandi.

Yeryong'oqning yer ustki qismiga zarar beruvchi kichik hajmli va tez harakatlanuvchi o'simlikxo'r qandalalarni va sikadalarining mavjudligini bevosita hisoblashda yeryong'oqning shonalash davrida entomologik matrapdan foydalanildi [3]. Entomologik matrap chapdan o'nga va o'ngdan chapga qo'sh silkitish yo'li bilan amalga oshirildi. Bir marta qo'sh silkitish maydonni 0,5 m² maydonni tashkil etadi. 2 marta qo'sh silkitish asosida 1 m² maydondagi zararkunandalar miqdori aniqlandi. Gullash, dukkaklash va pishish davrlarida hajmi 1x1m bo'lgan oq mato o'simlik qator orasiga asta sekin yozilib uning yonidagi o'simliklar bir vaqtda egilib qisqa va tez silkitish yo'li bilan chamalab o'rganib borildi. Ushbu usulda 1 m² maydonlarda uchraydigan qandalalar miqdori aniqlab borildi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki o'rganish natijasida 1 ga maydondagi zararkunandalar uchun hisob ishlari osonlashadi. Jadvalda ko'rinib turibdiki, g'o'za qandalasi yeryong'oqning shonalash davrida kam miqdorda paydo bo'lib, gullash va dukkaklash davrlarida ko'p miqdorda uchrashi qayd etildi.

Yeryong'oq o'simligi barg plastinkasi ostki qismida joylashib zarar beruvchi oqqanot, shira va o'rgimchakkana zararkunandalarni barglarining ostki qismi diqqat bilan ko'zdan kechirilib entomologik qo'l lupasidan foydalanib kuzatib borildi [1]. Shiralar chinbarg, shonalash va gullash davrida aniqlanmadi. Dukkaklash va pishish davrida kam uchradi. Shunga o'xshash natija oqqanot zararkunandasida ham qayd etildi. Urgimchakkana zararkunandasi chinbarglik, shonalash va gullash davrida ko'p kuzatilib barglarda sariq dog'lar paydo bo'lganligi aniqlandi. Dukkaklash



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

davrida o'rtacha kuzatilib, pishish davrida ularning miqdori kam darajaga tushib qoldi.

Tamaki tripsi zararkunandasining dalada mavjudligini va sonini chamalab o'rganish maqsadida uzunligi 7 sm gacha bo'lgan har birida 4-5 tadan barglari bo'lgan novdalar oq qog'ozga qoqib, tezlikda chamalab sanash yo'li bilan aniqlab borildi [2]. Ushbu usulda dalaning 10 joyidan 10 tadan o'simlik va har o'simlikda 3 tadan jami 30 ta bargli novdalar kuzatilib hisob ishlari olib borildi. Bunda tamaki tripsi chinbarg va shonalash davrida kam va gullash, dukkaklash va pishish davrlarida ko'p bo'lishi qayd etildi.

Kam harakatli gamma va g'o'za tunlami lichinkalarini o'rganishda 1 ga maydonning 5 ta joyidan 20 tadan, jami 100 ta o'simlik o'rganib borildi. Ular- ning miqdori vegetatsiya davrida kam uchraganligi qayd etildi.

Kuzatishlar natijasida yeryong'oq agrobiotsenozida o'rgimchakkana, g'o'za va beda qandalasi, tamaki tripsi va sikadalar ko'p uchrashi qayd qilindi. Ularning tarqalishi va soni turg'un bo'lmasdan turli omillar va sharoitlar ta'sirida o'zgarishlarga uchrashi aniqlandi.

1-jadval

Yeryong'oqning rivojlanish fazalari bo'yicha zararkunandalarning tarqalishi

Zararkunandalar nomi	Yeryong'oqning rivojlanish fazalari				
	Chinbarg	shonalash	gullash	dukkaklash	pishish
O'rgamchakkana	+	+	+	+	+
G'o'za qandalasi	-	+	+	+	-
Beda qandalasi	-	+	+	+	+
Dala qandalasi	-	+	+	+	-
Tamaki tripsi	+	+	+	+	+
Sikadalar	-	+	+	+	+
Oqqanot	-	-	-	+	+
Shira	-	-	-	+	+
G'o'za tunlami	-	+	+	+	-
Kuzgi tunlam	+	+	+	+	+
Gamma tunlami		+	+	+	+

Izoh: + - kam, + + - o'rtacha, + + + - ko'p.

XULOSA

Yeryong'oq o'simligida zararkunandalarning turi, miqdori va tarqalishini butun vegetatsiya davrida tez va oson, dehqon uchun qulay usullarda aniqlash ularga qarshi ayni paytda eng maqbul qarshi kurash usul va vositalarini belgilab, o'z muddatida sifatli qarshi kurashish tadbirlarini o'tkazishni ta'minlaydi. Pirovard natijada o'tkazilgan tadbirlar tannarxi kam bo'lishi va samaradorlikning oshishiga erishiladi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Xo'jayev Sh.T., Sulaymonov O.A. Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. – Toshkent. - 2019. – 376 b.
2. Xo'jayev Sh.T., Yuldoshev F.E., Obidjanov D.A., Shokirova G.N., Mamatov K.Sh., Sattarov N.R. G'alladan keyin ekiladigan o'rindosh ekinlarni zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha tavsiyanoma. – Toshkent-2014.-92 b.
3. Xo'jayev Sh.T., Sattarov N.R. Zararli qandala hashorotlar haqida nimalarni bilmoq kerak. -Toshkent:- 2018.-64 b.